


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil.
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo,
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Siyosat va xalqaro huquq.
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ohio State University, PhD, prof
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		Ataturk University
			E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

X.S.Umarxo'jayeva	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lif sohasi talabalarida ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish usullari	117
D.A.Solixo'jayeva	
Professional ta'lif muassasalarida tahlil olayotgan o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi	120
D.Aminova	
Internetda PR kommunikatsiya xususiyatlari	126
U.G'.Abdullaeva	
Ekologik ta'lif-tarbiya ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy usullari	132
D.Y.Tashnazarov	
Sportning yunon-rim kurash turida texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining samaradorligi (<i>chap tomoniga bajarish asosida</i>)	135
J.G'.Obidov	
Texnika oliv o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatcion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi didaktik manbalarni yaratish hamda zamonaviy o'quv jihozlaridan ratsional foydalanish	144
A.R.Qodirov	
Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini interaktiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	151
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivojlantirish usullari va takomillashtirish yo'llari	156
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasini shakllanish tamoyillari	160
G.M.Zoitova, Z.F.Arabjonova	
35-40 yoshdagi ayollarda sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida akvafitness vositalaridan kompleks foydalanish	165
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rim kurashchilarini texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining kinematik asoslarini o'rganish (<i>o'ng tomoniga bajarish asosida</i>)	172
B.Q.Baratov	
Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati	181
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs	185
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoiy texnologiya" fanining tuzilishi, mazmuni va takomillashtirish modeli ..	189
N.M.Xodjibolayeva	
Pedagogika fanlari xamkorligi asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy masalalari	196



**BADIY-TARIXIY MATERIALLAR VOSITASIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING
MA'NAVİY MADANIYATINI RIVOJLANТИRISHNING AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ
ХУДОЖЕСТВЕННО-ИСТОРИЧЕСКИЕ МАТЕРИАЛЫ**

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE SPIRITUAL CULTURE OF FUTURE
TEACHERS THROUGH ARTISTIC-HISTORICAL MATERIALS**

Baratov Baxtiyorjon Qodirovich 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya

Zamonaviy ta'limgizda ma'nnaviyat, insoniyatning ruhiy va axloqiy o'sishi uchun eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Xususan, o'qituvchilarning ma'nnaviy madaniyati, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki ularning jamoaviy hayotini shakllantirishda ham muhim rol o'yinaydi. Ushbu maqolada badiy-tarixiy materiallar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning ma'nnaviy madaniyatini rivojlanтиrishning ahamiyati, asosiy tamoyillari hamda eng samarali usullari haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

В современной системе образования духовность рассматривается как один из важнейших факторов духовного и нравственного развития человечества. В частности, духовная культура педагогов играет важную роль не только в их личностном развитии, но и в формировании их коллективной жизни. В статье рассматриваются значение, основные принципы и наиболее эффективные методы развития духовной культуры будущих учителей с использованием художественно-исторического материала.

Abstract

In the modern education system, spirituality is considered one of the most important factors for the spiritual and moral growth of humanity. In particular, the spiritual culture of teachers plays an important role not only in their personal development, but also in shaping their collective life. This article discusses the importance, basic principles and most effective methods of developing the spiritual culture of future teachers using art and historical materials.

Kalit so'zlar: qadriyat, badiy-tarixiy vositalar, ma'nnaviy madaniyat, axloq, urf-odat, san'at, diniy qadriyatlar.

Ключевые слова: ценности, художественно-исторические средства, духовная культура, этика, традиции, искусство, религиозные ценности.

Key words: values, artistic and historical means, spiritual culture, ethics, traditions, art, religious values.

KIRISH

Bugungi kunda ta'limgizda sohasi zamonaviy jamiyatning rivojlanishida muhim ahmiyat kasb etadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarda ma'nnaviy qadriyatlarni shakllantiruvchi tarbiyachi ham sanaladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarning ma'nnaviy madaniyatini rivojlanтиrish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Badiy-tarixiy vositalar, xususan, adabiyot, san'at va tarixiy manbalar o'qituvchilarning ma'nnaviy madaniyatini shakllantirishda katta ahmiyatga ega. Badiy adabiyot asarlari, tarixiy hodisalar va ulug' siymolar haqida o'qish orqali bo'lajak o'qituvchilar nafaqat bilimlarni, balki axloqiy va estetik qadriyatlarni ham o'zlashtiradilar. Bu, o'z navbatida, ularning pedagogik faoliyatida muhim o'zgarishlarga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODLAR

Respublikamizda o'quvchi-yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini shakllantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik asoslari, o'quvchi-yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlanтиrish, axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish bo'yicha I.Ergashev, Q.Nazarov, A.Begmatov, I.Karimov, S.Mamashokirov, A.Ochilidiyev, A.Mavrulov, M.Qaxxarova, T.Qurbanov, M.Quronov, O.Musurmonova, B.Xodjayev, B.Shermuxammadov, Sh.Akramova, G.Ibragimova, Z.Qosimova, M.Abdujabborova, M.Tadijiyeva, H.Norqulov, D.Mamatqulov,

D.Tursunov, M.Xo'jayev, S.Norboyeva, M.Davletshin, V.Karimovalar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy-tarixiy materiallар – badiiy adabiyot, san'at, me'morchilik yoki boshqa ijodiy yo'naliшlarda tarixiy voqealar, shaxslar va davrlarni tasvirlash va aks ettirishda qo'llaniladigan usullar, obrazlar va ifoda vositalaridir. Ushbu vositalar orqali tarixiy mazmun san'at asarlarida yoritilib, o'quvchi yoki tomoshabin ongiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy-tarixiy materiallarning asosiy xususiyatlari:

1. Tarixiy voqealarning aks ettirilishi: o'tgan davrlardagi muhim voqealar, shaxslar yoki davrlar badiiy shaklda qayta tasvirlanadi. Masalan, tarixiy romanlar, filmlar yoki dramatik asarlar.

2. Obraz yaratish: tarixiy shaxslar yoki voqealarni jonlantirish uchun ularni o'ziga xos, real va jonli qilib ko'rsatish.

3. Davr muhitini ifodalash: voqealar sodir bo'lgan davrning madaniyati, urf-odatlari, kiyim-kechaklari va boshqa tafsilotlarni tasvirlash.

4. Simvolik va metaforik ifoda: ba'zi tarixiy voqealar yoki shaxslar timsollar orqali ifodalanadi.

5. Badiiy erkinlik: san'atkor tarixiy faktlarni qayta ko'rib chiqib, ularni badiiy talqinda aks ettirishi mumkin.

Ma'naviy madaniyat – bu insonning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini, axloqiy me'yordi va anglash va ularga ryoja qilish jarayonidir. Badiiy-tarixiy materiallар, o'z navbatida, ushbu qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib, o'qituvchilarni yuqori madaniyat, axloqiy me'yordi va estetik did bilan tanishtiradi.

Ma'naviy madaniyat insoniyatning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlarini, estetik didi va ma'naviy boyligini aks ettiruvchi qadriyatlar majmuasidir. Uning tarixi insoniyat jamiyatini tarixinining ajralmas qismi bo'lib, u shaxsiy va jamoaviy rivojlanish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy madaniyat shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning o'zgarishi, madaniy almashinuvi va inson tafakkuri yuksalishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Insoniyatning dastlabki davrlarida ma'naviy madaniyat asoslarini tabiatga sig'inish, afsonalar va urf-odatlari tashkil qilgan. Qabila hayotida odob-axloq qoidalari shakllanib, bu qadriyatlar og'zaki ijod orqali avlodlarga yetkazilgan.

Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Yunoniston kabi qadimiy sivilizatsiyalarda diniy qarashlar, falsafiy ta'limatlar va san'at ma'naviy madaniyatning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Masalan: Misrda ruhning boqiyligi haqidagi e'tiqod diniy ma'naviy tamoyillarning asosi bo'ldi. Yunoniston falsafasi (Sokrat, Platon va Aristotel) insonning ma'naviy hayotini ilmiy asosda o'rganishga kirishdi.

O'rta asrlar davrida din ma'naviy madaniyatning asosiy yo'naliшini belgiladi. Xristianlik, islom va buddizm kabi dinlar insonning axloqiy tamoyillarini rivojlantririb, jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarini shakllantirdi.

VIII-XII asrlar davomida islom madaniyatida falsafa, fan va adabiyot sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Forobiy, Ibn Sino, Al-Buxoriy kabi olimlar ilmiy-falsafiy qarashlari bilan ma'naviy madaniyatni boyitdi.

XV-XVI asrlarda Yevropada uyg'onish davri ma'naviy madaniyatning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu davrda insonning erkinligi, ijodkorligi va ma'naviy imkoniyatlariga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo kabi ijodkorlar san'at va ilmni uyg'unlashtirgan holda, ma'naviyatning yangi cho'qqilarini yaratdilar.

Zamonaviy davrda ma'naviy madaniyat ilm-fan, texnologiya va globalizm ta'sirida sezilarli darajada o'zgardi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan madaniyatning turli shakllari ommaviyashib, milliy va jahon miqyosida birlashmoqda. Shu bilan birga, ekologik masalalar, inson huquqlari va tinchlikni ta'minlash kabi global muammolar ma'naviyatning dolzarb mavzulariga aylandi.

O'zbekiston hududi qadimdan ma'naviy madaniyat rivojlangan o'lka sifatida tanilgan. Qadimgi va o'rta asrlarda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda madrasalar va kutubxonalar ilm-fan va ma'rifat markazlari bo'lgan. Bu yerda Alisher Navoiy, Amir Temur, Beruniy kabi ulug' shaxslar o'z ijodi va faoliyati bilan ma'naviy boyliklarni yaratgan.

PEDAGOGIKA

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib qilishga katta e'tibor qaratildi. "Ma'naviyat va ma'rifat markazi" tashkil etilishi bu sohada muhim qadam bo'ldi.

Ma'naviy madaniyat – bu jamiyatning ma'naviy hayoti bilan bog'liq bo'lган barcha qadriyatlar, an'analar, bilimlar, urf-odatlар, qarashlar va ideallar majmuasidir. U insonlarning ichki dunyosini, axloqiy tamoyillarini, estetik qarashlarini va ma'naviy rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Ma'naviy madaniyat – bu shaxsning axloqiy tamoyillari, ichki dunyosi, ma'naviy qadriyatları, badiiy estetik didi va ijtimoiy mas'uliyatini o'zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Bo'lajak o'qituvchilar uchun bu jihatlar yanada muhimdir, chunki ular kelajak avlodga nafaqat fan bilimlarini, balki jamiyatning ma'naviy asoslarini ham o'rgatadi.

Ma'naviy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Bilimlar – insoniyat tomonidan yaratilgan ilmiy, falsafiy va diniy bilimlar.
2. Axloq – yaxshi va yomon, to'g'ri va noto'g'ri haqida qarashlar, odob-axloq qoidalari.
3. San'at – estetik qadriyatlar va ijodiy yutuqlar (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at va h.k.).
4. Diniy qadriyatlar – diniy e'tiqod va an'analar, ma'naviy hayotning diniy tomoni.
5. Tarbiya va ta'lim – yosh avlodni shakllantirish va ma'naviy boyitishga qaratilgan faoliyat.
6. Urf-odat va an'analar – xalqning ma'naviy merosi va turmush tarzining muhim qismi.

Ma'naviy madaniyat jamiyatda birlashuvni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va insonning ichki dunyosini boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy madaniyatni rivojlantirish quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

1. Ta'lim jarayonida ma'naviyatga e'tibor qaratish:

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar haqida alohida kurslar tashkil etish muhimdir. Bu orqali bo'lajak o'qituvchilar milliy qadriyatlar, tarix va madaniyatni chuqur o'rganadilar.

2. Adabiy va badiiy asarlardan foydalanish:

Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda adabiyot, san'at va teatrning o'rni katta. Mashhur asarlarni o'qish, teatrga tashrif buyurish yoki madaniy tadbirdarda qatnashish o'qituvchining badiiy didini oshiradi.

3. Amaliy faoliyat:

O'quvchi va yoshlar bilan ishslash jarayonida bo'lajak o'qituvchilar o'z ma'naviy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishadi. Tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish bu borada muhim omil hisoblanadi.

4. Psixologik va ma'naviy treninglar:

Oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilar uchun ma'naviy tarbiya va psixologik treninglar tashkil etish ularning ichki dunyosini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Ma'naviy muhit yaratish:

Talabalik yillarda sog'lom ijtimoiy muhitning shakllanishi ma'naviy o'sishni ta'minlaydi. O'quvchilar bilan muloqot, ma'naviy kechalar va ochiq darslar buning yorqin namunasi bo'lishi mumkin.

Badiiy-tarixiy materiallar asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari:

1. Pedagogik va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish.
2. Muvaffaqiyatli kommunikatsiya va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Empatiya va insoniylikni rivojlantirish.
4. Kreativ fikrlash va estetik tafakkurni rivojlantirish.

Badiiy asarlar bo'lajak o'qituvchilarda estetik did va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. O'qituvchilar badiiy asarlarni tahlil qilishda, ularni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqishda va yangi fikrlar yaratishda ijodiy yondashuvni o'zlashtiradilar. Bu esa pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvning rivojlanishiga yordam beradi va talabalarga ta'lim berishda samarali usullarni topishga imkon yaratadi.

Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning eng samarali usullari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. Diskussiya va munozara usullari.
2. Interaktiv o'qitish metodlari.
3. Badiiy-tarixiy asarlar asosida kurs ishlari.

XULOSA

Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat bilim, balki axloqiy, estetik va axborotlarga bo'lgan munosabatlari shakllantiriladi. Badiiy-tarixiy materiallar bo'lajak o'qituvchilarga o'z shaxsiy madaniyatini oshirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va, eng muhim, kelajakdagi o'quvchilarga yuqori axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni yetkazish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, bu metodika nafaqat o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun ta'lif tizimining sifatini oshirishga ham katta hissa qo'shadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish – bu ta'lif tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Ma'naviy jihatdan yetuk o'qituvchi o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalaydi va jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Shu sababli, oliv ta'lif muassasalari ma'naviyatga alohida e'tibor qaratishi, pedagoglarning axloqiy va madaniy salohiyatini oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [PF-5847 08.10.2019](#).
2. Hoshimov K., Nishonova S.,– Pedagogika tarixi -T.: Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. 304 b.
3. Toxtaxodjayeva M.X. "Pedagogika nazariyasi"/ OTM uchun darslik.- T.: "Iqtisod- moliya", 2010. 136-140-b.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil.
5. Pedagogika:ensiklopediya. I jild/T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti.-Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 45-46-betlar.